YANGI TEXNOLOGIYALAR VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV: TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Odinaxon Mansurova
GDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tezisda yangi texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirishdagi ijtimoiy-psixologik jihatlari va “Tajriba asosida o‘qish” (Experiential learning) g‘oyasi tahlil qilingan. Interfaol vositalar va “qayta aloqa” (feedback) tizimining talabalar motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuviga ta’siri ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik yondashuv, motivatsiya, interfaol ta’lim, experiential learning, feedback, ijtimoiy identifikatsiya.

Jahon oliy ta’lim tizimida ta’lim berish jarayonida yangi texnologiyalarga asoslangan holda innovatsiyalar va innovatsion faoliyatga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Fan, ta’lim hamda amaliyot orasidagi tafovutni bartaraf etish yo‘lida “Tajriba asosida ta’lim olish” (Experimential learning) g‘oyasi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Bu borada “Experiential learning” o‘qitish ta’limni o‘quv sinfidan tashqarida, tajriba tarzida o‘tkazishni taqozo etib, ta’lim oluvchilarni motivlashtirish yo‘li bilan keng jalb etishni nazarda tutadi[1]. Buning uchun ta’lim tizimida yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishni amalga oshirishning o‘ziga xos psixologik yondoshuvlariga e’tibor berish, bu jarayonni takomillashtirish orqali ta’lim jarayonini yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. “Texnologiya” atamasi tilshunoslik va falsafa nuqtai nazaridan yunoncha *techne* (mahorat, hunar) va *logos* (bilim, ta’limot) so‘zlaridan kelib chiqadi.[2] Dastlab ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish vositasi sifatida paydo bo‘lgan texnologiya tushunchasi keyinchalik ijtimoiy sohalarga, xususan, ta’lim tizimiga tatbiq etila boshlandi.

Pedagogikada texnologiya ta’lim jarayonini tizimli, rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan shaklda tashkil etish vositasi sifatida qaraladi.[3] V.P. Bespalko texnologiyani “ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, amalga oshirish, monitoring va nazorat orqali rejalashtirilgan natijalarni ta’minlovchi tizim” deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, Yu.K. Babanskiy texnologiyani o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini maksimal darajada ta’minlovchi mexanizm sifatida ko‘radi.[4]

Innovatsiya — mavjud tizimni takomillashtirish, yangi metod, vosita yoki texnologiya kiritish jarayoni bo‘lib, shaxs va jamiyat faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keltiradi.[5] Ta’lim kontekstida innovatsiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faoliyatni individual

[1] Action Learning – How does it work in practice? MIT Sloan Management. Retrieved 2016-03-16 Archived 2016-03-08 at the Wayback Machine.
[2] Rosenberg, N. (1976). *Perspectives on Technology*. Cambridge University Press.
[3] Bespalko, V.P. (1990). *Pedagogicheskie tehnologii*. Moscow: Prosveshchenie.
[4] Babanskiy, Yu.K. (1998). *Psikhologiya ucheniya*. Moscow: Akademiya.
[5] Rogers, E.M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). Free Press.

xususiyatlarga moslash, shuningdek, guruh va ijtimoiy muhit bilan hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi.[1]

Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan yangi texnologiyalar shaxslararo muloqot jarayonlarini, kommunikativ vazifalarni, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi vosita sifatida baholanadi. Masalan, onlayn ta’lim vositalari shaxsning o‘zini aniqlashiga, virtual guruhlarda kommunikatsiya strategiyalarini o‘zgartirishga va yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishga yordam beradi.[2]

Shuningdek, texnologiyalar shaxsning motivatsion va psixologik holatini qo‘llab-quvvatlaydi, ta’lim jarayonida stressni kamaytirishga va individual o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.[3]

Fikrimizcha, yangi texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi, balki o‘quvchilarning individual motivatsiyasini oshirish, o‘zini o‘rganish jarayonida mustaqil tutish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interfaol va onlayn ta’lim vositalari shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, virtual va real guruhlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilarning guruhdagi ijtimoiy rollarni qabul qilish va moslashuvchanlik qobiliyatini oshirish imkoniyatini yaratadi. Natijada, yangi texnologiyalar o‘quv jarayonini nafaqat informatsion jihatdan boyitadi, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham samarali qiladi, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va faol ishtiroki ortadi.

Yangi Texnologiyalarning ijtimoiy psixologik effektlari

Motivatsiya va faollik. Interfaol texnologiyalar shaxsning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, o‘rganishga qiziqishni kuchaytiradi hamda individual faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

Guruh muhitiga moslashuv. Virtual guruhlar shaxsga yangi ijtimoiy rollarni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi, guruh ichidagi ijtimoiy qoidalar va stereotiplarni qayta baholashni talab qiladi.

Ijtimoiy identifikatsiya. Onlayn kommunikatsiya vositalari orqali shaxs turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, o‘zini ijtimoiy kontekstda qayta aniqlaydi.

Stress va moslashuv mexanizmlari. Yangi texnologiyalarni qabul qilish individual shaxs uchun stresska olib kelishi mumkin, bu holat esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlariga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida shaxsning motivatsiyasi va faol ishtiroki uning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan “Motivatsiya – shaxsni ma’lum bir maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki va tashqi kuchlarning majmuasi bo‘lib, u shaxsning faoliyatini, qaror qabul qilishini va o‘zini rivojlantirish jarayonlarini shakllantiradi.”[4]

Zamonaviy ta’limda interfaol texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, onlayn forumlar, gamifikatsiya elementlari va simulyatsiya dasturlari) motivatsiyani faollashtirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda samarali vosita sifatida tan olinmoqda. Ushbu vositalar shaxsga o‘zini anglash va o‘z qobiliyatini namoyon etish imkonini beradi, shuningdek, individual o‘rganish jarayonida faol ishtirokni rag‘batlantiradi.

Motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi:

Ichki motivatsiya – shaxsning o‘z qiziqishi, o‘rganish jarayonidan zavq olish va shaxsiy maqsadlariga erishish istagi bilan bog‘liq. Interfaol texnologiyalar ichki motivatsiyani rag‘batlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, virtual laboratoriyada eksperimentlar o‘tkazish o‘quvchiga natijalarni tezkor kuzatish imkonini beradi, bu esa o‘z-o‘zini anglashni va bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Tashqi motivatsiya – baholar, sertifikatlar, ijtimoiy tan olinishi kabi tashqi rag‘batlar orqali shakllanadi. Gamifikatsiya elementlari (ballar, medallar, reytinglar) talabalarni faol qatnashishga

[1] Jonassen, D.H. (2000). *Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking*. Prentice Hall. Mishra, P., & Koehler, M.J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

[2] Turkle, S. (2011). *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other*. Basic Books.

[3] Brod, C. (1984). *Technostress: The Human Cost of the Computer Revolution*. Addison-Wesley.

[4] (Ryan & Deci, 2000).

undaydi va ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.[1] Shu tarzda, tashqi rag‘batlar shaxsning ichki motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Interfaol texnologiyalar motivatsiyani oshirishda bir necha psixologik mexanizmlardan foydalanadi:

2007- yili Review of Educational Research jurnalida Hattie, J., va Timperley, H. larning “The power of feedback” maqolasi e’lon qilindi[2] va katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Maqolada quyidagi fikrlar ilgari surilgan: Hattie va Timperley ta’lim psixologiyasida feedback (qayta aloqa) ning samaradorligini o‘rganib chiqqan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samarali feedback o‘quvchining o‘rganish jarayonini sezilarli darajada oshiradi, chunki u shaxsga o‘z xatolarini tushunish, o‘rganish strategiyalarini tuzatish va maqsadga yo‘naltirish imkonini beradi.

Ular feedbackni to‘rt asosiy savol orqali tahlil qilgan:


Qayerdaman? – O‘quvchi o‘zining hozirgi bilim darajasini va qayerda xato qilayotganini tushunadi.

Qayerga borishim kerak? – O‘quvchi maqsad va natijalarni aniq biladi.

Qanday qilib u yerga borishim mumkin? – O‘quvchiga aniq strategiyalar va yo‘nalishlar beriladi.

Feedbackning motivatsion ta’siri – O‘quvchiga muvaffaqiyatga erishish uchun ijobiy rag‘bat beriladi. Feedback o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi. U shaxsga o‘z xatolarini tushunish va tuzatish imkonini beradi, shuning uchun interfaol texnologiyalar bilan birga qo‘llanganda motivatsiyani sezilrli darajada oshiradi. Feedback samaradorligi shaxsning oldingi bilim darajasi va o‘rganish strategiyasiga bog‘liq.

Hattie & Timperley ning fikricha, feedback ijtimoiy kontekstda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot orqali samarali bo‘ladi. Bu shaxsning o‘zini ijtimoiy tizimda baholashiga, guruhdagi faoliyatga moslashishiga va ijtimoiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, interfaol texnologiyalar bilan birga feedback tizimi joriy etilganda, motivatsiya va faollik yanada oshadi. Darhol natija ko‘rish (immediate feedback) – topshiriqlarni bajargan zahoti o‘quvchi natijani ko‘radi, bu esa o‘z muvaffaqiyatini baholashga va yangi bilimlarni mustahkamlashga imkon beradi.



[1] Bandura, 1977

[2] Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta’lim tizimini transformatsiya qilish jarayonida yangi texnologiyalar shunchaki texnik vosita emas, balki ta’lim oluvchining **motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy identifikatsiyasini** shakllantiruvchi fundamental psixologik drayver bo‘lib xizmat qilmoqda. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin: **Nazariya va amaliyot sintezi:** "Tajriba asosida ta’lim olish" (Experiential learning) g‘oyasining ustuvorligi ta’limni auditoriya chegaralaridan olib chiqib, uni hayotiy va kasbiy ko‘nikmalar bilan bog‘laydi. Bu jarayonda texnologiyalar talabaning subyektiv tajribasini boyituvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Motivatsiyaning yangi ierarxiyasi: Interfaol texnologiyalar va gamifikatsiya elementlari talabada nafaqat tashqi (baholar, reyting), balki **ichki motivatsiyani** (qiziqish, kashfiyot zavqi) ham mustahkamlaydi. Darhol qayta aloqa (immediate feedback) tizimi o‘quvchida o‘z bilimiga nisbatan ishonch uyg‘otadi va o‘qishga bo‘lgan proaktiv yondashuvni shakllantiradi.

Ijtimoiy-psixologik transformatsiya: Yangi texnologiyalar ta’lim muhitida shaxslararo muloqotning yangi formatlarini yaratadi. Virtual guruhlar va onlayn kommunikatsiya talabalarga yangi ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish, stressli vaziyatlarda jamoaviy qo‘llab-quvvatlashni his qilish va raqamli jamiyatda o‘zligini (identity) anglash imkonini beradi.

Qayta aloqa (Feedback) – samaradorlik kuchi: Hattie va Timperley tadqiqotlari tasdiqlaganidek, texnologik innovatsiyalar faqatgina mazmunli va tizimli qayta aloqa bilan uyg‘unlashgandagina kutilgan natijani beradi. "Qayerdaman?", "Qayerga borishim kerak?" va "Qanday qilib?" kabi savollarga javob beruvchi tizim talabaning o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) qobiliyatini yuksaltiradi. Oliy ta’limda innovatsion faoliyatni takomillashtirish nafaqat texnologik jihozlanishga, balki ushbu texnologiyalarning talaba shaxsiga ko‘rsatadigan **ijtimoiy-psixologik effektlarini** to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq. Ta’lim jarayoniga texnologiyalarni tatbiq etishda shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan hamkorligiga e’tibor qaratish — zamonaviy mutaxassisni Vatanga sadoqat va yuqori kreativlik ruhida tarbiyalashning garovidir.